



O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING HUQUQ VA KAFOLATLARI.

Sultonova Nazokatxon Otabek qizi

FarDu tarix fakulteti ijtimoiy ish yo'nalishi talabasi

Albatta, erishayotgan barcha yutuqlarimiz, inson qadri ulug'bo'lgan diyor – yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi dastlabki natijalardir. Biz Bunyodkor xalqimiz bilan birga bunday ezgu ishlarni davom ettiramiz va oldimizga qo'ygan katta-katta marralarga albatta erishamiz.

SH.M.Mirziyoyev.

Anotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda bugungi kunda ustuvor masalaga aylangan nogironligi bo'lgan shaxslarning davlat tomonidan himoya qilinganligi va nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari hamda ularning erkinliklari himoya qilinishi hamda ularning jamiyatdagi o'rnini haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi qonun, BMT, nogironlarning huquqlari to'g'risidagi konvensiya, huquq, erkinlik, ijtimoiylashuv.

KIRISH .

Oramizda shunday insonlar borki, ularning jismoniy imkoniyati cheklangan, lekin ma'naviyati yuksak, ruhi esa juda kuchli va matonatli. Afsuski, nogironligi bo'lgan shaxslar ko'pincha ishlash, ta'lim darajasini oshirish va jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar. Hozirgi paytda ularning soni jahon miqyosida tahminan 1 milliard nafarni tashkil etadi. Aksariyat hollarda ular kamsitish va



“qo‘li kaltalik”dan aziyat chekadilar. Albatta, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasidagi eng katta mas’uliyat davlat zimmasiga tushadi.

ADBIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA .

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini 2009 yil 27 fevralda imzolagan, biroq, uni ratifikatsiya qilish masalasi hal etilmagan edi. Davlat rahbarining 2017 yil 1 dekabrda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida ushbu masala ilgari surilib, imkoniyati cheklangan shaxslar huquqlarini xalqaro normalarga muvofiqlashtirish, alohida qonun qabul qilish lozimligi ta’kidlangan edi.

Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan islohotlar samarasi o‘laroq, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar Strategiyasining 2020 yilgi Davlat dasturiga muvofiq, 2020 yilning 15 oktyabr kuni mamlakat Prezidenti tomonidan yangi tahrirdagi "Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida"¹gi Qonun imzolandi.

Mazkur qonun bilan nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta’minlashning asosiy prinsiplari belgilab berildi. Shuningdek, tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari faoliyati yana-da takomillashtirildi va imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish va ularning huquqlarini kafolatlashga oid qator masalalar Qonun darajasida belgilandi.

MUHOKAMA.

Qayd etish lozimki, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2021 yil 22 fevral kuni BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida **imkoniyati cheklangan shaxslarning o‘z qobiliyatini to‘la ro‘yobga chiqarish masalalari bo‘yicha Mintaqaviy kengash tuzish taklifi** bildirilgan va O‘zbekistonda **alohida ehtiyojga ega**

¹ www.lex.uz. Huquqiy Axborot portal.



bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta‘minlashga jiddiy e‘tibor qaratilayotganini ta‘kidlangan edi.

Yurtboshimizning xalqaro tashabbusi doirasida, O‘zbekiston Parlamenti tomonidan Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya ratifikatsiya qilindi.

Mazkur Konvensiya - nogironligi bo‘lgan shaxslarning tenglik asosida barcha inson huquqlarini to‘liq amalga oshirishlarini rag‘batlantirish, himoya qilish va ta‘minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. U mavjud sharoitlardan foydalanish imkoniyati, shaxsiy harakatlanish, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, bandlik, abilitatsiya va rehabilitatsiya, siyosiy hayotda ishtirok etish, shuningdek tenglik va kamsitmaslik kabi bir qator muhim masalalarni qamrab oladi.

Bir so‘z bilan aytganda, endilikda mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qonunchilikning ham milliy, ham xalqaro asoslari mavjud. Galdagi dolzarb masala – ushbu normalarda belgilangan vazifalarning samarali ijro etilishidan iborat.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) manziliga ham nogironligi bo‘lan shaxslar tomonidan ko‘plab murojaatlar kelib tushadi va ular shaxsan Ombudsman nazoratiga olinadi. 2020 yilgi murojaatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, imkoniyati cheklangan shaxslar ko‘pincha nogironlikni belgilashda ortiqcha ovoragarchilik va sarf-harajatlarni keltirib chiqaruvchi omillarning mavjudligidan, ish topishda to‘siqlar borligidan norozi bo‘lib murojaat qilishgan. Qolaversa, arizalar orasida uy-joy ajratishdagi imtiyozlardan foydalanish va maxsus aravacha, protez va boshqa vositalarni bepul ajaratilishi ko‘mak so‘rab murojaat etishgan.

Alohida qayd etish kerakki, bu kabi masalalar joriy yil kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasi "Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida"gi Qonuni bilan o‘z yechimini topishi belgilangan. Unga ko‘ra, tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari faoliyati yana-da takomillashtirilib, tekshiruvdan o‘tkazish tibbiy hujjatlar qabul qilingan kundan e‘tiboran 10 kun ichida bepul amalga oshirilishi belgilangan.

Shuningdek, imkoniyati cheklanganlarning ijtimoiy himoyasi bilan bog‘liq qator masalalar ham Qonun darajasida belgilandi. Tashkilotlar nogironligi bo‘lgan shaxslarning sport inshootlari, dam olish, shuningdek turistik obyektlardan bepul foydalanishini



ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi, ularga bepul tibbiy yordam ko'rsatishning davlat kafolatlari dasturi doirasida tegishli choralar ko'rish, nogironligi bo'lgan shaxslar sanatoriy-kurortda bepul sog'lomlashtirish, shuningdek dori vositalari, parvarish uchun mo'ljallangan tibbiy buyumlar va nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus shifobaxsh oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish huquqi shular jumlasidan.

Qolaversa, qonun bilan nogironligi bo'lgan bolalarning bepul umumiy o'rta, maktabdan tashqari, o'rta maxsus va professional ta'lim olishini kafolatlash, bunda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun oliy ta'lim muassasalarida davlat granti asosida abituriyentlarni qabul qilish umumiy sonining 2 foizi miqdorida qo'shimcha qabul kvotasi ajratilishi va boshqa shu kabi qator imtiyozlar va huquqlar belgilangan.

Eng muhimi, qonunning 6-moddasida nogironlik belgisiga ko'ra kamsitilishga yo'l qo'ymaslik tamoyili aks ettirilgan. Unga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan har qanday ajratib qo'yish, istisno etish, chetlatish, cheklash yoki afzal ko'rish holatlari, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarning obyektlar va xizmatlardan foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratishni rad etish taqiqlanadi.

NATIJA.

Ushbu normaning nozik bir jihati borki, bu tegishli davlat tashkilotlari va hokimiyatlarga anchayin murakkab, zalvorli va moliyaviy tomondan yaxshigina mablag' talab etuvchi vazifalarni yuklaydi. Bu – nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy obyektlarda hech qanday to'siqlarsiz harakat qilishi uchun shart-sharoitlarni yaratishdir. To'g'ri, shu kunga qadar ham bino va inshootlar, yo'laklar, transport vositalarining ma'lum bir qismigina nogironlarning erkin harakatlanishi uchun moslashtirildi, lekin bu yetarli emas. Bundan buyon nogironligi bo'lgan shaxslarni hech bir shaklda kamsitilishlariga yo'l qo'ymaslik uchun ham, avvalambor, qulay muhitni ta'minlashning aniq mexanizmlarini joriy qilish maqsadga muvofiq. Imkoniyati cheklangan shaxslar har qanday ijtimoiy obyektlardan va xizmatlardan hech qanday to'siqlarsiz foydalana olishlari shart. Shu bilan birga, ularni ta'lim bilan to'liq qamrab olish maqsadida inklyuziv ta'lim olish huquqini amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish lozim.

Bu borada nafaqat davlat tuzilmalarining, balki fuqarolik jamiyati institutlarining ham faolligi talab etiladi. Xususan, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili



(ombudsman) nogironligi bo‘lgan shaxslarga moslashtirilgan sharoitlarni yaratish bo‘yicha barcha nodavlat notijoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ishlashga tayyor.

Shu o‘rinda qayd etish lozimki, Ombudsman instituti bilan O‘zbekiston Nogironlar jamiyati o‘rtasida o‘zaro hamkorlik memorandumini imzolangan bo‘lib, uning doirasida aholining nogiron qatlamlariga teng imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy hayotda faol qatnashishlari uchun ko‘maklashish, mehnatga jalb etish, ularning huquqlarini himoya qilish, ushbu yo‘nalishda ularning huquqiy madaniyatini yana-da yuksaltirish bo‘yicha hamkorlikda ishlanmoqda. O‘ylaymanki, bu boradagi amaliy ishlarni yana-da kengaytirish va mustahkamlash davr talabiga aylandi. Shu jihatdan Ombudsman instituti tomonidan mamlakatimizda nogironlik sohasida faoliyat yuritayotgan 600 ga yaqin nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan birgalikda joylarda yangi tahrirdagi "Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining mazmun-mohiyatini tushuntirish, imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqiy savodxonligini oshirish bilan birgalikda mazkur xujjatning ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish bo‘yicha qator loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida “Nogironlarni Ijtimoiy Himoya Qilish To‘g‘risida”²gi Qonun 2008-yil 11-iyuldagi O‘RQ-162-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuniga muvofiq yangi tahrirda qabul qilingan “ Mazkur Qonun nogironlarga huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishda O‘zbekiston Respublikasining boshqa barcha fuqarolari bilan teng imkoniyatlarni ta‘minlash, ularning turmush faoliyatidagi cheklashlarni bartaraf etish, nogironlarni to‘laqonli hayot kechirishlariga, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy turmushida faol qatnashishlariga, shuningdek o‘zlarining fuqarolik burchlarini bajarishlariga imkon beradigan qulay shart-sharoit yaratish maqsadida davlatning nogironlarga oid siyosatini belgilaydi” ushbu qonun. “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” BMT ning Bosh Assambleyasining 2006-yil 13-dekabrda 61/106 rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan.” Ushbu Konvensiyaning maqsadi barcha nogironlarning insonning barcha

² Ushbu Qonun “Xalq so‘zi” gazetasining 2008-yil 12-iyuldagi 137 (4547)-sonida e‘lon qilingan.
www.lex.uz



huquqlari va asosiy erkinliklarini rag'batlantirish , himoya qilish hamda to'la va keng amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek ularga xos qadr-qimmatni hurmat qilish rag'batlantirishdir.

Nogironlarga turli to'siqlar bilan o'zaro munosabatda ularning boshqalar bilan teng holda jamiyat hayotida to'la va samarali ishtirok etishiga halaqit beradigan barqaror jismoniy, psixik , intellektual yoki sensor buzulishlari bo'lgan shaxslarga taalluqlidir'' deb e'tirof etilgan.

Nogiron shaxslarning huquqlari; Nogironligi bo'lgan shaxslarni huquqlari davlat tomonidan himoya qilingan bo'lib , bundan asosiy maqsad hamma fuqarolar teng huquqliligini ta'minlash hamda ularni jamiyatga tatbiq qilishdan iborat . O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 1-dekabr kuni , Xalqaro nogironlar kuni [3-dekabr] arafasida ''Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlarito'g'risida''gi farmoni imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi''Nogironligi Bo'lgan Shaxslarning Huquqlari To'g'risida''gi Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 22-iyulda qabul qilindi , Senat tomonidan 2020-yil 11-sentabrda ma'qullangan. Ushbu qonuning maqsadi nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

XULOSA.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga teng imkoniyatlar yaratish bo'yicha ishlar yanada jadalashishi lozim. Ma'lumki nogironligi bo'lgan shaxslar jismoniy jixatdan cheklangan bo'lsada , lekin aqli hamda ma'naviyati yuksak ruhi esa juda kuchli . Lekin afsuslar bo'lsinkim ularni jamiyatda ishlash , ta'lim darajasini oshirish va jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etishdan mahrum bo'ladilar . Hozirgi paytda ularning soni jahon miqiyosida tahminan 1 milliard nafarni tashkil etadi. Ba'zi birgi holatlarda ular kamsitilishdan aziyat chekadilar . Albatta , ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi eng katta mas'uliyat davlat zimmasiga tushadi.



Xususan , O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-avgustdagi F-5006-son farmoyishi bilan tashkil etilgan Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tayyorlash bo'yicha Komissiya tomonidan nogironlikni barvaqt aniqlash va oldini olish, nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish , ularni kasbga o'qitish va ishga joylashtirish ishlari chuqur ko'rib chiqildi.

Har bir fuqaro xususan imkoniyati cheklangan , nogiron shaxslar ham o'z huquqlaridan to'laqonli ravishda foydalanishga haqlidirlar. Qachonki biz ularga to'g'ri ko'z bilan qarar bo'lsak yoki jamiyatda ularga yondosh bo'la olsakgina ularni o'zlariga bo'lgan ishonchi shu qadar ortadi. Bu esa o'z navbatida davlatimiz kelajagi uchun o'z ta'sirini qoldirmay qo'ymaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хонкелдиева, К., Рахимова, Х., & Хасанхужаева, У. (2021). ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ СРЕДИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ. *Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы [Текст]: мате*, 34.
2. Хонкелдиева, К., & Муйдинжонова, М. (2020). Актуальные проблемы решения безработицы в Республике Узбекистан. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 18-19).
3. Хонкелдиева, К., & Хо'jamberdiyev, J. (2020). Экономика и социум.
4. Хонкелдиева, К., Рахимова, Х., & Абдусатторова, З. (2020). Проблемы развития социального обеспечения населения. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 42-43)
- 5 www.lex.uz.